

Pedagogik Faoliyatni Texnologiyalashtirish – Ijtimoiy Zaruriyat

G. Kushakova

A.Qodiriy nomli JDPI mактабгача та’лим методикаси кафедраси дотс

Sh. Xolmatova

2-kurs magistr

A R T I C L E I N F O.

Kalit so’zlar:

pedagogik, faoliyat, texnologiya, ijtimoiy, ta’lim-tarbiya, jarayon, ta’lim tizimi, milliy ruh, an’anaviy.

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish – ijtimoiy zaruriyat ekanligi, pespublikada ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug‘orish, samarali an’anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarini yaratish va amaliyotda qo‘llash borasida olib borilayotgan ishlar.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Ta’lim – inson faolligini belgilaydigan muhim bir tarmoqqa aylanmoqda. Shuning uchun ta’lim tizimida inson faoliyati bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni hal etish zarur. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu vazifalarni ilmiy-texnika jarayonining o‘zgarishi bilan bog‘liq ta’limning yangi nazariyasini yaratish, ya’ni fanni jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylantirish va amaliy ko‘rsatkichlarini rivojlantirish natijasida amalga oshirish mumkin.

Respublikada ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug‘orish, samarali an’anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarini yaratish va amaliyotda qo‘llash borasida olib borilayotgan ishlarga bog‘liq. Bu yo‘nalish keng qamrovli bo‘lib, mazmunan takomillashib bormoqda. Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’limning butun jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o‘quv jarayonini maqsadga ko‘ra individuallashtirishni nazarda tutadi.

Ta’lim tizimining fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuviga erishuvini ta’minlashni bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida kun tartibiga qo‘yilishi bu borada muayyan vazifalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ta’lim mazmunini tubdan yangilash, uni ilg‘or qarashlar bilan boyitishga erishish, ta’lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini ta’minlash ana shunday vazifalar sirasiga kiradi.

Rivojlangan mamlakatlar ilmiy-pedagogik tajribasi, mamlakatimizda ilmiy-metodik izlanishlar olib borgan va borayotgan pedagog-olimlar ilmiy-metodik xulosalarining ko‘rsatishicha, zamonaviy ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini o‘z ichiga qamrab olgan yangi pedagogik texnologiyalar qo‘yilgan maqsadga erishishga kafolat beradi.

Respublika ta’lim tizimi va undagi o‘qitish jarayonini takomillash-tirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta’lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko‘ra ta’lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilib olib borildi.

Dunyo ta’limi oldida turgan global vazifalarning hal qilinishida yechimini kutatayotgan muammolar: oliv ta’lim tizimining tahlili, vazifalari, maqsadlarini o‘rganish va kerakli tavsiyalar yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim sohasi bilan shug‘ullanuvchi barcha muassasalarining hozirgi kundagi asosiy qiyinchiliklari, ta’limni tashkil etish va uning sifatini yuqori darajaga ko‘tarish, boshqarish, moliyalashtirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish kabi masalalarning hal qilinishiga qaratilgan. Aynan shu muammolar respublika ta’lim tizimida ham mavjuddir.

XX asr kishilik jamiyat taraqqiyoti tarixidan fan va texnika sohasida yuz bergen inqiloblar davri sifatida joy oldi. Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur’ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g‘oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta’minladi. Xizmat ko‘rsatish sohalarining paydo bo‘lishi, yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o‘z navbatida ularning qisqa muddatida va sifatli qondirilishini ta’mindan etuvchi faoliyatning yo‘lga qo‘yilishini taqozo etdi. Ijtimoiy zarurat mahsuli bo‘lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig‘ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish, xom-ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar)da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuv an’anasi yuzaga keldi.


Texnologik yondoshuv ishlab chiqarish jarayonining umumiyligi tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xom-ashyoni tanlash (dastlabki bosqich) dan mahsulotni iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan (so‘ngi bosqich) davrni o‘z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e’tirof etiladi. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv muayyan sohalarda islohatlarni tashkil etish, ularning muvafaqiyatini ta’minlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalariga zamонави, ilg‘or, yuksak texnologiyalarning tatbiq etilishi bir qator shartlar asosida kechadi, xususan, ilm-fan hamda texnikaning so‘ngi yutuqlarga tayanish, yirik moliyaviy mablag‘lar va yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega malakali mutaxassislarining mayjudligi bu boradagi yutuqlarni kafolatlaydi.

Moddiy ishlab chiqarish sohalarida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash shartlaridan biri – malakali mutaxassislarini tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishga erishish ekanligidan ham anglanadiki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot bir-biri bilan uzbviylik, aloqadorlik hamda yaxlitlik tamoyili asosida rivojlanib boradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida yetakchi o‘rin tutgan g‘oya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazsa, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish aholining madaniy turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat‘iy hamda murakkab talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to‘laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro‘y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj ta’lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzbviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kengayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamонави fan-texnika yutuqlaridan samarali va unumli foydalana olish vazifasi maqsadga muvofiqdir (1-shakl):



Adabiyotlap рўйхати

1. Kushakova, G. (2021). 6-7 BOLALARNI OILADA MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK AHAMIYATI. *Maktabgachata'limjurnalı*, 3 (Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3938>
2. Kushakova, G. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA PEDAGOGIK ISHLARNI TASHKIL ETISH . *Maktabgachata'limjurnalı*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3509>
3. Kushakova, G. (2021). ОИЛАВИЙҚАДРИЯТЛАРНИНГ ФАРЗАНДТАРБИЯСИДА ГИЎРНИ. *Maktabgachata'limjurnalı*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3491>
4. KG Egamkulovna Pedagogical conditions for the formation of tolerant thinking in youth in the family environment - Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021